INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

MARKAZIY OSIYODA MADANIYAT TARIXI VA MAHALLIY TIBBIYOTNING SHAKLLANISHI

Komilova Nozima Ulug'bekovna

Toshkent davlat tibbiyot universiteti talabasi

Nozimakomilov@icloud.com

Ro'ziyev Navro'z Ixtiyor o'g'li

Toshkent davlat tibbiyot universiteti o'qituvchi

navruzruziyev90@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda mahalliy tibbiyotning shakllanishi va madaniyat bilan uyg'unlikda rivojlanish tarixi tahlil qilingan. Tadqiqotda qadimgi Zardushtlik davri ("Avesto"), Buyuk Ipak yo'li hamda Sharq Renessansi mutafakkirlarining (Ibn Sino, Beruniy va b.) jahon tibbiyotiga qo'shgan hissasi yoritilgan. Shuningdek, xalq tabobatining o'ziga xos xususiyatlari – mizoj ilmi, dorivor o'simliklar orqali davolash usullari hamda an'anaviy tibbiyotning bugungi kunda zamonaviy tibbiyot bilan integratsiyalashuv istiqbollari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar

Markaziy Osiyo, madaniyat tarixi, qadimgi tibbiyot, xalq tabobati, "Avesto", Sharq Renessansi, Abu Ali ibn Sino, mizoj ilmi, dorivor o'simliklar, ananaviy davolash.

Abstract

This article analyzes the history of the formation and development of local medicine in Central Asia in harmony with culture. The study highlights the contribution of thinkers of the ancient Zoroastrian period ("Avesta"), the Great Silk Road, and the Eastern Renaissance (Ibn Sina, Beruni, etc.) to world medicine. Also considered are the features of folk medicine - the science of temperament, methods of treatment with medicinal plants, as well as the prospects for the integration of traditional medicine with modern medicine today.

Keywords

Central Asia, history of culture, ancient medicine, folk medicine, "Avesta", Eastern Renaissance, Avicenna (Ibn Sina), Theory of temperament (mizaj), medicinal plants, traditional healing.

Аннотация

В данной статье анализируется история формирования местной медицины в Центральной Азии в тесной связи с развитием культуры. В исследовании освещен вклад

древнего зороастрийского периода («Авеста»), Великого Шелкового пути и мыслителей Восточного Ренессанса (Ибн Сино, Беруни) в мировую медицину. Также рассматриваются специфические особенности народной медицины — учение о мизадже, методы лечения лекарственными растениями и перспективы интеграции традиционной медицины с современной.

Ключевые слова

Центральная Азия, история культуры, древняя медицина, народная медицина, «Авеста», Восточный Ренессанс, Авиценна (Ибн Сино), учение о мизадже, лекарственные растения, традиционное лечение.

Kirish

Markaziy Osiyo minglab yillar davomida turli sivilizatsiyalar, madaniyatlar va ilmiy bilimlar tutashgan noyob chorraha vazifasini o‘tab kelgan. Qadimiy Buyuk Ipak yo‘lining markazida joylashgan bu zamin nafaqat savdo-sotiq, balki madaniyat, san’at va ayniqsa, tibbiyot sohasidagi bilimlar almashinadigan ulkan maydon bo‘lgan. Mahalliy xalqlarning madaniyati va iqlim sharoiti negizida shakllangan an’anaviy tibbiyot asrlar davomida inson salomatligini asrashga xizmat qilib keldi. Bu an’analar faqatgina kasalliklarni davolashdan iborat bo‘lmay, balki insonning tabiat bilan uyg‘unlashuvi, to‘g‘ri ovqatlanish madaniyati va kasalliklar profilaktikasini o‘z ichiga olgan butun bir falsafiy-madaniy tizimdir. Ushbu maqola Markaziy Osiyo tibbiyotining qadimiy ildizlaridan tortib to bugungi kungacha bo‘lgan tadrijiy rivojlanish bosqichlarini madaniyat tarixi bilan bog‘liq holda yoritishga qaratilgan.

Markaziy Osiyoda tibbiyotning qadimiy ildizlari va shakllanish davri

mintaqada tibbiyot tarixi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Arxeologik topilmalar va tarixiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, dastlabki jarrohlik usullari (xususan, bosh suyagini ochish – trepanatsiya amaliyoti) hamda shifobaxsh giyohlardan foydalanish xalqlar madaniyatida eramizdan minglab yillar avval ham mavjud bo’lgan.

Qadimgi Eron va Turon xalqlarining e’tiqodi bo‘lgan Zardushtlik dinining muqaddas kitobi –Avesto nafaqat diniy-falsafiy, balki qomusiy-tibbiy manba hisoblanadi. Unda sog’liqni saqlash, tozalik va jismoniy barkamollik madaniyati qat’iy qoidalar bilan belgilangan. Tuproq, suv, havo va olovni ifloslantirmaslik asosiy hayotiy tamoyil bo‘lgan. "Avesto"da shifokorlar uch toifaga ajratilgan: giyohlar bilan davolovchi tabiblar, tig‘ bilan davolovchilar va ilohiy kalimalar ya‘ni ruhiy ta’sir bilan davolovchilar. Miloddan avvalgi II asrdan boshlab Buyuk Ipak yo‘li Xitoy, Hindiston, Eron, Yunoniston va Rim madaniyatlarini bog’ladi. Bu yo‘l orqali Markaziy Osiyoga nafaqat mosh, sholi kabi ekinlar, balki zanjabil, dorichin kabi dorivorlar va Tibet, Xitoy akupunktura , Hind Ayurveda tabobati sirlari kirib keldi. O‘z navbatida, bu yerdan mo‘miyo, turli shifobaxsh tog’ giyohlari va minerallar G’arb va Sharqqa eksport qilingan. Natijada Termiz, Buxoro, Samarqand kabi shaharlarda o‘ziga xos sintezlashgan tibbiyot maktablari shakllandi.

Sharq Renessans davri va tibbiyotning yuksalishi VIII asrda Islom dinining mintaqaga kirib kelishi ilm-fan, xususan, tibbiyot tarixida yangi sahifa ochdi. Qadimgi yunon, rim, hind va fors mutafakkirlarining asarlari arab tiliga tarjima qilinib, "Bayt ul-Hikma" kabi markazlarda chuqur o‘rganildi va islomiy qadriyatlar, mahalliy iqlim xususiyatlari bilan boyitildi.

Markaziy Osiyo madaniyati va fani dunyoga qator ulug‘ shifokorlarni yetkazib berdi.

Xususan, Abu Bakr ar-Roziy (865–925) garchi hayotining ko‘p qismini Eron va Iroqda o‘tkazgan bo‘lsa-da, Movarounnahr olimlari bilan uzviy aloqada bo‘lgan. Uning tibbiyotga oid qomusiy asarlari, ayniqsa chechak va qizamiqni birinchi bo‘lib farqlashi tibbiyot tarixida muhim rol o’ynaydi.

Buxoro yaqinida tug‘ilgan ulug’ mutafakkir Abu Ali ibn Sino (980–1037) qalamiga mansub "Tib qonunlari" (Al-Qonun fi al-Tibb) asari jahon tibbiyotining toji hisoblanadi. Ibn Sino kasalliklar etiologiyasi, anatomik tuzilish, dorishunoslik va amaliy jarrohlikni bir butun tizimga soldi. Uning asarlari asrlar davomida Yevropa universitetlarida asosiy tibbiy darslik sifatida o‘qitilgan. Yana bir buyuk alloma, farmakognoziya fanining asoschilaridan biri Abu Rayhon Beruniyning "Kitob as-Saydana fit-tibb" (Dorishunoslik kitobi) asarida 1000 dan ortiq dorivor o‘simliklar, hayvonot va ma’danlardan olinadigan dori vositalarining xususiyatlari va ularning turli tillardagi nomlari izohlab berilgan.

O‘rta asrlarda Buxoro, Samarqand, Urganch va Marv shaharlarida madrasalar qoshida maxsus kasalxonalar — bimaristonlar faoliyat yuritgan. Bu shifoxonalar nafaqat bemorlarni davolash, balki bo‘lajak tabiblarga amaliy ta’lim berish maskani bo’lgan. O‘rta asrlardagi bimaristonlarda asab, ko‘z va yuqumli kasalliklar uchun alohida palatalar tashkil qilingan, hatto ularning o‘z dorixonasi va boy kutubxonalari bo’lgan. Bu esa o’sha davrda tibbiyot va madaniyat qanchalik kuchli rivojlanganini ko‘rsatadi.

Mahalliy tibbiy an’analar va davolash madaniyatining o’ziga xosligi

Markaziy Osiyo tibbiyoti quruq va kontinental iqlim sharoitidan kelib chiqib, o‘ziga xos diagnostika va davolash falsafasini ishlab chiqqan. Sharq tabobatining asosi inson "mizoj"ini (issiq, sovuq, ho’l, quruq) aniqlashga qaratilgan. Tabiblar xastalikni davolashni birinchi navbatda to‘g‘ri ovqatlanishdan boshlagan. Kasallikning mizojiga qarab, unga qarama-qarshi tabiatli ovqatlar buyurilgan. Diagnostika masalasida tabiblar hech qanday texnik uskunalarisiz, faqat kuzatuv, bemorning tili, siydigi va eng muhimi — nabz ya’ni puls ushlash orqali ichki a‘ zolardagi o‘zgarishlarni aniq bexato topa olganlar.

Mintaqaning tog’ va cho’l florasi shifobaxsh giyohlarga juda boy (Igirot, isiriq, shirinmiya, dalachoy, kiyik o‘ti va boshqalar). Xalq orasida o‘simliklarni yig‘uvchi va undan dori tayyorlovchi usta tabiblar — attorlar faoliyati keng rivojlangan. Bundan tashqari, hijoma, zuluk qo‘yish, tabiat qo‘ynida qum va loy yordamida davolanish hamda shikastabandlik (an’anaviy ortopediya) madaniyati xalq tabobatining ajralmas qismi bo’lib kelgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tabib faqat shifo beruvchi emas, balki jamiyatda yuksak ma’naviyatli, sadoqatli ustoz va ruhiyatshunos sifatida qadrlangan. Tibbiy ilmlar "ustoz-shogird" an’anasi asosida avloddan avlodga o’tib kelgan.

Tibbiy merosning saqlanishi va mustaqillik davrida qayta tiklanishi

Markaziy Osiyoning an’anaviy tibbiyot amaliyotlari turli tarixiy o‘zgarishlarga qaramay o‘z umrboqiyligini saqlab qoldi. Sobiq Ittifoq davrida rasmiy (g’arb) tibbiyot davlat siyosatiga aylanib, xalq tabobatiga "eskirgan", "xurofot" tamg‘asi bosilgan bo'lsa-da, tog’li va chekka qishloqlarda og’zaki va yashirin an’analar ko’rinishida bu ilmlar saqlanib qoldi. Odamlar rasmiy tibbiyot ojizlik qilgan paytlarda xalq tabiblariga, o’t-o’lan bilan davolovchilarga murojaat qilishda davom etdilar. Asrlar davomida yaratilgan minglab tibbiy qo‘lyozmalar esa Sharqshunoslik institutlari fondlarida ilmiy meros sifatida asrab qolindi.

Mustaqillik yillarida o’zlikni anglash, boy madaniy va ilmiy merosimizni tiklash

qatorida xalq tabobatiga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Bugungi kunda xalq tabobati amaliyotlarini ilmiy o‘rganish, etnobotanika sohasini rivojlantirish va ularni rasmiy tibbiyot bilan integratsiya qilish davlat miqyosidagi masalaga aylandi. Farmatsevtika sanoatida mahalliy dorivor o‘simliklar asosida ekologik toza preparatlar ishlab chiqarish ko‘paymoqda. Zamonaviy tibbiyot tizimida an'anaviy tabobatni litsenziyalash va standartlashtirish orqali faqatgina haqiqiy, ilmiy asoslangan usullarni aholiga taqdim etish borasida qonuniy bazalar yaratildi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoda mahalliy tibbiyotning shakllanishi shunchaki xastaliklarni davolash usullari yig’indisi emas, balki chuqur madaniy va ilmiy fenomen hisoblanadi. Tadqiqotimiz shuni ko’rsatadiki, qadimgi ajdodlarimiz, xususan, Sharq Renessansi mutafakkirlari hamda xalq tabiblarining eng katta ustunligi shunda ediki — ular faqatgina tibbiyot sohasi bilangina chegaralanib qolmaganlar. Ular bir vaqtning o’zida faylasuf, botanik, kimyogar, ruhiyatshunos va madaniyat peshvolari bo‘lishgan. Shu keng qamrovli, qomusiy bilimlar evaziga ular insonni faqatgina "kasallikkan chalingan tana" sifatida emas, balki koinot va tabiatning uzviy bir qismi sifatida ko'rib, unga to'laqonli yondasha olganlar.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda, biz ushbu boy merosdan to'g'ri xulosa chiqarishimiz lozim. Zamonaviy rasmiy tibbiyot va qadimiy xalq tabobati o’rtasidagi munosabat raqobatga emas, balki o’zaro do’stlik va hurmat tamoyiliga asoslanishi kerak. Ular hech qachon bir-birini inkor qilmasligi, aksincha, bir-birining kamchiligini to’ldirishi zarur. Zamonaviy tibbiyot o’zining o’ta aniq diagnostikasi va innovatsion texnologiyalari bilan qanchalik qudratli bo’lsa, xalq tabobati ham ming yillik sinovlardan o‘tgan tabiiy dori-darmonlari, inson ruhiyatiga ta'siri va nojo’ya asoratlarsiz davolash usullari bilan shunchalik qadrlidir.

Binobarin, asosiy maqsadimiz — shunchaki boy tariximiz bilan faxrlanibgina qolish emas, balki o’sha mutafakkir ajdodlarimizdek keng dunyoqarashga ega bo’lishdir. Agar biz bugungi kunning ilg'or ilm-fan yutuqlarini asrlar davomida shakllangan mahalliy tibbiy an’analarimiz bilan uyg‘unlashtira olsak, inson salomatligini asrashda nafaqat mintaqamiz, balki butun dunyo uchun manfaatli bo'lgan yangicha tibbiy madaniyatni yarata olamiz. Bu esa kelajak avlod uchun biz qoldiradigan eng munosib meros bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibn Sino, Abu Ali. Tib qonunlari (Al-Qonun fi al-Tibb). 1-jild. / Arab tilidan tarjima. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1980. – 456 b.

2. Beruniy, Abu Rayhon. Saydana (Kitob as-Saydana fit-tibb). / Tarjimon va izohlar muallifi U. Karimov. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1973. – 285 b.

3. Karimov E.A. Markaziy Osiyo tabobati tarixi ocherklari. – Toshkent: Sharq, 2008. – 192 b.

4. Saidov A.A. Ibn Sino merosi va Markaziy Osiyo tibbiyot maktablari. – Samarqand: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 2015. – 144 b.

5. Hakimov J. Medicinal plants of Uzbekistan and their use in folk medicine. – Tashkent: G’afur G’ulom, 2012. – 210 p.

ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

6. Gulyamova Z.N. Islom sivilizatsiyasi davrida tibbiyotning rivojlanishi (Markaziy Osiyo misolida). – Toshkent: Ma'naviyat, 2017. – 176 b.

7. Sattorov N. Xalq tabobati: Qadimdan bugungi kungacha. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 320-322 b.